

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**XODJANOV MARAT ISLAMOVICH**

**QORAQALPOG‘ISTONDAGI O‘ZBEKLARNING OILAVIY  
MAROSIMLARI**

**07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Xodjanov Marat Islamovich**

Qoraqalpog‘istondagi o‘zbeklarning oilaviy marosimlari ..... 3

**Ходжанов Марат Исламович**

Семейные обряды узбеков Каракалпакстана ..... 27

**Xodjanov Marat Islamovich**

Family rituals of the Uzbeks of Karakalpakstan .....52

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 56

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**XODJANOV MARAT ISLAMOVICH**

**QORAQALPOG‘ISTONDAGI O‘ZBEKLARNING OILAVIY  
MAROSIMLARI**

**07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2019.2.PhD/Tar513 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) hamda «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kamalova Raushan Sabirovna**  
tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Davletova Saodat Tilovberdievna**  
tarix fanlari doktori (DSc), professor

**Matkarimova Nazokat Maksudovna**  
tarix fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
instituti Nukus filiali**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «28» XII soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shaxri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz))

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (235 -raqam bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 230100, Nukus shaxri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «14» XII kuni tarqatildi.  
(2024 yil «14» XII dagi 11 -raqamli reestr bayonnomasi)



**M.A.Karlibaev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), k.i.x.

**X.M.Otegenov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**B.A.Koshanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon etnologiyasida oilaviy marosimlarni o'rganish turli jamiyatlar hayotining chuqur madaniy va ijtimoiy tomonlarini tushunishga imkon beradigan dolzarb va muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Oilaviy marosimlar ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan qadriyatlar, me'yorlar va an'analarni aks ettiradi va madaniy merosni rivojlantirish va keyingi avlodga yetkazishning asosiy elementi hisoblanadi.

Dunyoning turli xalqlariga xos bo'lgan oilaviy marosimlar, oila iqtisodiyoti, etnik qadriyatlar masalalarini tarixiy va zamonaviy aspektda o'rganish dunyodagi ko'plab ilmiy markazlar va institutlarning qiziqish mavzusiga aylangan. Jumladan, Germaniya (Maks Plank Institut for Social Anthropology), Fransiya (School of Advanced Studies in the Social Sciences), AQSh (The Center for Family Research), Avstraliya (Institut of Social and Cultural Anthropology) kabi rivojlangan mamlakatlardagi ijtimoiy antropologiya va etnografiyaga ixtisoslashgan ilmiy muassasalarda oila, nikoh marosimlari, urf-odatlar va marosim iqtisodiyoti masalalari tadqiq etilgan.

Oila va oilaviy marosimlar masalalarini o'rganish O'zbekistonda etnologik tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti "Etnologiya va antropologiya markazi", O'zR FA Qoraqalpoq gumanitar ilmiy-tadqiqot instituti va shu kabi ko'plab universitetlarning gumanitar fanlar yo'nalishidagi fakultetlari ilmiy jamoalari tomonidan oila tuzilmalari va an'analari evolyusiyasini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradigan tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekiston xalqlari oilaviy hayoti ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar ta'sirida o'zgarib borayotgan bo'lsa-da, milliy-etnik an'analarning tiklanib borayotganligini kuzatish mumkin.

Biz o'rganayotgan hududda azaldan qoraqalpoqlar bilan yonma-yon o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar o'zaro etnomadaniy aloqalarda yashab kelganlar va bu munosabatlarning ta'sirini o'xshash oilaviy marosimlar, an'analarda ham kuzatish mumkin. Albatta, etnomadaniy an'analardagi yaqinlik bu xalqlarning kelib chiqishi bir o'zak, turkiylikka dahldorligi bilan ham chabarchas bog'liqdir. Ammo oila, oila an'analari, marosimlari milliy-etnik xususiyatlarni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etib, bunda milliy o'zliklar, til, moddiy va ma'naviy madaniyat elementlari saqlanib qoladi hamda ajdodlardan avlodlarga o'tadi. Qoraqalpog'istonda etnologlarning qiziqishlari ham aynan oilaviy marosimlarning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, oila a'zolari, oiladagi o'zgarishlar dinamikasi, ijtimoiy-madaniy omillarning oilaviy munosabatlarga ta'siri masalalarini yanada chuqurroq tadqiq etish imkonini beradi. Shuningdek, globallashuvning an'anaviy oilaviy qadriyatlarga ta'sirini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi

Farmoni<sup>1</sup>, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi<sup>2</sup> kitobi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori<sup>3</sup>, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2018-yil 29-iyundagi №09-15/255-son “To‘y hashamlar, oilaviy tantanalar, ma‘rakalar va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag‘ishlanadigan tadbirlar o‘tkazilishini tartibga solish to‘g‘risida”gi qarori<sup>4</sup>, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2019-yil 14-sentyabrda 2736-III/QQ-592-III-son «To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma‘raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi qo‘shma Qarorida<sup>5</sup> va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan».

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ushbu mavzu bo‘yicha adabiyotlarni uch guruhga bo‘lish mumkin: 1) Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida yaratilgan oila va nikoh munosabatlariga oid manbalar va adabiyotlar; 2) Sovet davridagi tadqiqot ishlari; 3) O‘zbekiston mustaqilligi davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.

Dissertatsiyaning muayyan bir bo‘limi 1.1. paragrafi mavzuning tarixshunoslik qismiga bag‘ishlangani uchun bu yerda masalaga alohida to‘xtab o‘tilmadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, ushbu muammoning o‘rganilishi bugungi kungacha tarixshunoslik nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilinmagan. Bu esa ushbu muammoni yanada tadqiq qilish zarurligini ta‘kidlaydi.

**Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining “Qoraqalpog‘istonda globallashuv va ekologik inqiroz sharoitida an‘anaviy madaniyat bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish” mavzusi doirasida bajarilgan.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: Ўзбекистон, 2022. 476 б.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 25.12.2023 йилдаги ПҚ-405-сон қарори. <https://lex.uz/docs/6713096>

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенатининг 2018 йил 29 июндаги №09-15/255-сонли "Тўй ҳашамлар, оилавий тантаналар, маъракалар ва маросимлар, марҳумларнинг хотирасига бағишланадиган тadbirlar ўтказилишини тартибга солиш тўғрисида”ги қарори. // <https://azon.uz/content/views/oliy-majlissenat-tuy-hashamlar-va-maros>.

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгашининг ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2019 йил 14 сентябрдаги 2736-III/КҚ-592-III-сон «Тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар ўтказилишини тартибга солиш тизimini янада тақомиллаштириш тўғрисида»ги қўшма қарори. <https://lex.uz/docs/5153833>.

**Tadqiqotning maqsadi.** Qoraqalpog‘iston etnik-madaniy muhitida o‘zbek oilaviy marosimlari va urf-odatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Qoraqalpog‘iston hududida o‘zbeklar zich yashaydigan tumanlarda dala tadqiqotlari va sotsiologik so‘rovnomalar o‘tkazish;

o‘zbeklarning oilaviy marosimlari va urf-odatlarini o‘rganilishiga oid adabiyotlarni tahlil qilish;

o‘zbek oilaviy marosim va urf-odatlarining an’anaviy va zamonaviy holatini tahlil etish;

Qoraqalpog‘iston hududida o‘zbek-qoraqalpoq, o‘zbek-turkman, o‘zbek-qozoq etnomadaniy aloqalar va o‘zaro ta’sirlarni o‘rganish;

o‘zbek nikoh marosimlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

dafn va ta’ziya marosimlaridagi o‘ziga xos an’analar va zamonaviy tendensiyalarni ko‘rsatib berish;

Qoraqalpog‘iston o‘zbeklari va O‘zbekistonning boshqa hududlaridagi o‘zbeklarning oilaviy marosimlari va urf-odatlarini qiyosiy tahlil qilish.

**Tadqiqotning ob’ekti.** Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarining oilaviy marosimlari va urf-odatlari.

**Tadqiqotning predmeti.** Qoraqalpog‘iston o‘zbeklari oilaviy marosimlari va urf-odatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini etnologik jihatdan tahlil qilish.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik, fanlararo, tarixiy-qiyosiy tahlil hamda etnografik kuzatuv va sotsiologik so‘rovnoma kabi ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. O‘rganilayotgan ob’ektlarning foto, audio va videofiksatsiyasi amalga oshirildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘zbek nikoh marosimlari tizimining tarkibiy qismi bo‘lgan to‘ydan oldin o‘tkaziladigan *kelin tanlash, sovchilik, non sindirar, unashtiruv* kabi an’analar va udumlarda ayollar rolining yuqori turishi, amal qilinishi qat’iy bo‘lgan qoidalar tizimi o‘zbeklarga xos milliy an’analarning yashovchanligini oshirganligi aniqlandi;

yoshlarning munosib umr yo‘ldoshini tanlash, naslning uzviy davomiyligini ta’minlash, baxtli hayot kechirishi maqsadida qadimgi diniy e’tiqod izlari, magik qarashlar va islomiy an’analar qorishuviga boy *oqliq berish, non sindirish, to‘y kunini belgilash* kabi an’analar hanuzgacha o‘z milliy mazmun mohiyatini saqlab kelayotganligi isbotlangan;

o‘zbeklarining kundalik hayotida oilaviy marosimlarning qadimgi kultlar, islomiy urf-odatlar va sovet davridan meros bo‘lgan odatlar bilan qorishib ketganligi kuzatiladi. Mazkur marosimlar, xususan dafn marosimlari oilaviy urf-odatlar siklining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘zida o‘tmishdan meros bo‘lgan marosimlarni shu kunga qadar saqlab keluvchi an’analar tizimi ekanligi dalillandi.

o‘zbeklarning dafn bilan bog‘liq urf-odatlari, qadimiy e’tiqodiy unsurlar hanuzgacha saqlanib kelganligi ko‘rsatib berilgan. Ta’ziya va marhum xotirasiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan marosimlarda ham qadimgi an’analar yashovchanligi, jumladan, arvoH ruhi, xonadon egalarining maxsus taomlar (is) pishirib, marhumni

xotirlashi kabi konservativ tasavvurlar ma'lum vaqt (qiriq kun) gacha qat'iy amal qilinishi yonma-yon yashab kelayotgan qoraqalpoq, qozoq, turkman va hatto boshqa viloyatlarda istiqomat qiluvchi o'zbeklardan ham ancha farqli jihatlarga ega ekanligi ko'rsatib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tadqiqotning amaliy natijalari etnografiya va madaniyatshunoslik sohasidagi kelajakdagi tadqiqotlar uchun qimmatli manbaga aylanadigan keng ma'lumotlar bazasini yaratish uchun asos bo'lishi mumkin; olingan ma'lumotlardan yoshlarni o'qitish va ularning o'z madaniyatiga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun foydalanish mumkin, bu esa, asosan, o'z navbatida, noyob an'analarni saqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy voqelik sharoitida oilaviy tuzilmalar va rol modellaridagi o'zgarishlarni aniqlash sotsiologlar va psixologlarga mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy siyosat va dasturlarni shakllantirish uchun muhim bo'lgan jamiyat dinamikasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Faktologik manbalar (qo'lyozmalar, dala yozuvlari), Qoraqalpog'iston hududida 2019-2023 yillar mobaynida to'plangan yangi dala etnografik materiallarning ilmiy muomalaga kiritilishi, shuningdek xolislik va tarixiylik kabi ilmiy tamoyillarning qo'llanilishi tadqiqot natijalarining ishonchliligi sifatida baholangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot materiallari Qoraqalpog'istondagi o'zbeklarning tarixi va etnografiyasi bo'yicha umumlashtirilgan ilmiy asarlar va o'quv qo'llanmalarini yaratishda xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari tadqiqotning materiallari va natijalaridan davlat ilmiy-texnik dasturlarining loyihalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning nazariy xulosalari respublikada etnomadaniy ta'lim, ijtimoiy-madaniy rivojlanish masalalarini qamrab oluvchi milliy-madaniy siyosat asoslarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qoraqalpog'istonda yashovchi o'zbeklarning oilaviy marosimlarini o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va xulosalar asosida:

dissertatsiya ishining natijalaridan, undagi ilmiy-nazariy qarashlardan, O'zRFAQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2018-2020 yillarda bajarilgan PZ-20170915198-“Qoraqalpog'iston jamiyatidagi ijtimoiy ko'rsatmalar transformatsiyalanishi: tarix va amaliyot” mavzusidagi mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida Qoraqalpog'iston etnik-madaniy muhitida o'zbek oilaviy marosimlari va urf-odatlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda muhim nazariy va amaliy manba sifatida foydalanilgan (O'zRFAQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024 yil 5-sentyabrdagi №372/1-sonli ma'lumotnomasi). Dissertatsiyada keltirilgan ilmiy-nazariy qarashlar, jumladan, Qoraqalpog'istonda etnik-madaniy muhitida o'zbek oilaviy marosimlari va urf-odatlarining mazmun-mohiyatini asoslab berishiga oid yangi ma'lumot va tasniflar loyihadagi aksariyat masalalarni o'rganishda yordamchi nazariy va amaliy manba sifatida xizmat qiladi;

dissertatsiya ishining natijalaridan, undagi ilmiy-nazariy qarashlardan, O‘zRFAQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan “Globallashuv sharoitida qoraqalpoq xalqining ananaviy madaniyati” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida Qoraqalpogiston o‘zbeklari va O‘zbekistonning boshqa hududlaridagi o‘zbeklarning oilaviy marosimlari va urf-odatlarini qiyosiy tahlil qilishda muhim nazariy va amaliy manba sifatida foydalanilgan (O‘zRFAQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024 yil 5-sentyabrdagi №373/1-sonli ma’lumotnomasi). Qoraqalpogiston hududidagi o‘zbeklarning oilaviy marosimlarining ma’lum bir madaniyatga xos bo‘lgan qadriyatlari, meyorlar va an’analarini aks ettirishda va madaniy merosni rivojlantirishda tadqiqot materiallari ishonchli manba sifatida foydalanildi;

dissertatsiya ishi bo‘yicha “Qoraqalpog‘istondagi o‘zbeklarning oilaviy marosimlari” deb nomlangan chiqishi Qoraqalpogiston teleradiokanalining qoraqalpoq tilida olib borilgan «Assalam Qaraqalpaqstan» va «Miras» dasturidagi eshittirishi orqali aholiga, keng jamoatchilik vakillariga, olimlarga, talabalarga, o‘quvchi yoshlarga targ‘ib etildi (Qoraqalpog‘iston Teleradiokompaniyasining 2024 yil 6-sentyabrdagi №05-22/402-sonli ma’lumotnomasi). Tadqiqot xulosalari va natijalari tinglovchilarga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, qoraqalpog‘istonlik o‘zbeklarning madaniy merosi to‘g‘risida xabardorlikni oshirishga yordam berdi. Dissertatsiya asosida nashr etilgan nashrlar va nutqlar keng auditoriya e’tiborini tortdi, bu oilaviy marosimlarni madaniyatning muhim elementi sifatida chuqurroq tushunishga yordam berdi.

dissertatsiyada keltirilgan o‘zbeklarning oilaviy marosimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida mavzuviy ko‘rgazmalar va ekskursion leksiylarni tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining 2024 yil 24 sentyabrdagi № 266 sonli xati). Xususan, qoraqalpog‘istonlik o‘zbeklarning oilaviy marosimlari haqidagi ma’lumotlar tashrif buyuruvchilarga Qoraqalpog‘iston xalqlari madaniyati haqidagi dunyoqarashlarini kengaytirish imkonini berdi va xalqlar o‘rtasidagi millatlararo totuvlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta nashr qilingan ishlarda, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta (4 tasi respublika va 2 ta xorijiy jurnallar) maqola chop etilgan. Shuningdek, 9 tasi ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar va tezislarni ko‘rinishida xalqaro va respublika ilmiy anjumanlarining to‘plamlarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'ekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, aprotatsiyasi, natijalarning joriy qilinishi, e'lon qilinganligi hamda tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Tadqiqotning **“Muammoning manbashunosligi va tarixshunosligi”** deb nomlangan birinchi bobida Markaziy Osiyo mintaqasidagi va Qoraqalpog'istondagi o'zbeklarning oilaviy marosimlari va urf-odatlariga oid manbalar va tarixshunosligi o'rganilgan.

Ushbu bobning **“Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'zbeklarning oilaviy marosimlariga oid manbalar”** deb nomlangan birinchi paragrafda Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'zbeklarning oilaviy marosimlari haqidagi ma'lumotlar, olim va etnograflarning tadqiqotlari tadqiq qilingan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda yashagan rus mualliflarining asarlarida o'zbeklarning oila va nikoh munosabatlari o'rganilganligi, o'lar o'zbek xalqining turmush tarzi va urf-odatlarini kuzatib, nikohdan oldingi va nikoh marosimlari, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarining oilaviy an'analari haqida umumiy fikrlari o'rganilgan.

XIX asrning 70-80-yillari boshidan boshlab bu sohada birinchi tadqiqotlar boshlandi. Rus olimi A.D. Grebenkinning 1872 yilda “Rossiya Turkistoni” to'plamida nashr etilgan “O'zbeklar” nomli asarlari bunga misoldir. Asarda sovchilik bilan bog'liq an'analari haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan: "Turmush qurmoqchi bo'lgan har bir o'zbek kelin bo'lguvchi oilasiga sovchilar yuboradi. Qizning ota-onalaridan ularning qiziga irkek (eri - H. M.) bo'lishga roziligini olgach, u odat bo'yicha endi kelinning otasiga ham, onasiga ham yuzini ko'rsata olmaydi. U ular bilan uchrashuvlardan qochishi kerak; agar u tasodifan ular bilan uchrashsa, odob-axloqni buzmaslik uchun o'zini xalat bilan yopib, yuz o'girishi shart..."<sup>6</sup>. Bu odat qiziqarli, chunki unda qadimiy an'analarning ba'zi qoldiqlarini saqlab qolgan.

O'zbeklarning oilaviy marosim va urf-odatlariga oid ma'lumotlarning eng dastlabkilari P.Рычков<sup>7</sup>, A.V.Kaulbars<sup>8</sup> va A.Vamberi<sup>9</sup> qalamiga mansub hisoblanadi. Ayniqsa, A.V.Kaulbarsning tadqiqot ishi tahsinga sazovor bo'lib, unda oilalarning asosan qishloqlarda va katta bo'lmagan shaharlarda yashashi, oilaviy turmush tarzi qo'shni xalqlarga juda o'xshashligini qayd etgan<sup>10</sup>.

<sup>6</sup> Гребенкин А.Д. Таджик. Узбеки. Мелкие народности Заравшанского округа // Русский Туркестан. Сборник, изданные по поводу Политехнической выставки. Вып. 1.М., 1872. – С. 63.

<sup>7</sup> Рычков П. История Оренбургская, журн. Соч. и переводы, 1759 г., август; Рычков П. Типография Оренбургской губернии, журн. Соч. и переводы, 1762 г., март.

<sup>8</sup> Каульбарс А.В. Древнейшие русла Аму-Дарьи. / Записки императорского Русского географического общества. Т.17. № 4. – СПб., 1887. – 623 с.

<sup>9</sup> Вамбери А. Путешествие по Средней Азии (Рассказы о странах Востока). – М.: Восточная литература, 2003. – 320 с.

<sup>10</sup> Каульбарс А.В. Древнейшие русла Аму-Дарьи. / Записки императорского Русского географического общества. Т.17. № 4. – СПб., 1887. – С. 568-569.

Er-xotin tadqiqotchilar V.P. Nalivkin va M.V. Nalivkinalarning “Farg‘ona mahalliy o‘troq aholisi ayollari turmushidan ocherklar” nomli asarida vodiy o‘zbeklarining oilaviy turmush marosimlarini yoritish bilan birga ayollarning oila institutidagi o‘rni va roliga ham alohida to‘xtalib o‘tgan<sup>11</sup>.

N.S. Lыkoshinning ishida Toshkent aholisi oilasida o‘tkazilgan bayramlar tasvirlangan: «Osh berishning ma‘nosi esa vafot etgan oila a‘zosining sharafiga bag‘ishlangan o‘lim kuni, to‘qqizinchi, qirqinchi, yarim yillik va yilligida osh pishirib yaqinlarni ovqatga chaqirish. Bularning barchasi o‘z zamondoshlari oldidagi burchni bajarish deb tushuniladi<sup>12</sup>. N.S.Lыkoshinning ishida nikoh va sunnat to‘yi kabi oilaviy bayramlarning batafsil tavsifi berilgan. Bundan tashqari, muallif ushbu bayramlarning isrofgarchiligi va tashkilotchiga keltiriladigan zarari haqida o‘z fikrini bildiradi<sup>13</sup>.

Xiva oilasining hayoti, xivalik ayollarning turmush tarzi va kasblari haqida amerikalik muxbir Aloiziy Mak Gaxan asarlarida o‘z aksini topgan<sup>14</sup>.

Shunday qilib, O‘rta Osiyo xalqlari oilaviy marosimlari haqidagi manba va adabiyotlarning tahlilini sarhisob qilinib, bu ma‘lumotlar asosan chor Rossiyasi tomonidan olib borilayotgan tajovuzkor siyosat bilan bog‘liq bo‘lib, uning shaklida strategik muhim masalalarga katta e‘tibor berildi va oilaviy muammolar ikkinchi darajali bo‘lib qolanligi aytiladi. Ammo shunga qaramay, urf-odatlar, nikoh marosimlari, oila tuzilishi, erkaklar va ayollarning oilaviy hayotdagi roli bo‘lib, bu mintaqadagi oilaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishga imkon berdi.

Ushbu bobning **“Qoraqalpog‘iston o‘zbeklari oilaviy marosimlarining tarixshunosligi”** deb nomlangan ikkinchi paragrafda mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilinib quyidagicha tasniflangan: 1. XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrda yaratilgan adabiyotlar; 2. Sovet mustamlakchiligi davrida nashr qilingan etnografik tadqiqotlar; 3. Mustaqillik davri tadqiqotlari; 4. Xorijiy tadqiqotlar.

O‘tgan asrning 30-yillarida yaratilgan ilmiy ishlar ichida S.P. Tolstovning «Markaziy Osiyo xalqlarining dini» deb nomlangan fundamental maqolasida boshqa xalqlar qatorida o‘zbeklarnig ham oilaviy sikl turkumiga kiruvchi urf-odat va marosimlarini qayd etilgan<sup>15</sup>.

1937-yildan boshlab tashkil etilgan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiya tarkibidagi olimlar, jumladan S.P.Tolstov<sup>16</sup>, N.P.Lobacheva<sup>17</sup>, G.P.Snesarev<sup>18</sup>, V.M.Sazonova<sup>19</sup> va K.L.Zadыхinalarning<sup>20</sup> ilmiy maqola va

<sup>11</sup> Наливкин В.П., Наливкина М.В. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань, 1886. – 244 с.

<sup>12</sup> Лыкошин Н.С. Пол жизни в Туркестане. Очерки быта туземного населения. Вып. 1. – Петроград, 1917. – С. 334.

<sup>13</sup> O‘sha manba. – С. 341-346.

<sup>14</sup> Мак Гахан А. Поход на Оксус и падение Хивы // Военный сборник, 1874. - № 11. - С. 7.

<sup>15</sup> Толстов С.П. Религия народов Средней Азии // Религиозные верования народов СССР. – М.–Л.: Московский рабочий, 1931. – С. 310, 316-321.

<sup>16</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – 351 с.

<sup>17</sup> Лобачева Н.П. Различные обрядовые комплексы в свадебном церемониале народов Средней Азии и Казахстана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С. 298-333.

<sup>18</sup> Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – 336 с.

monografiyalarida shu yerda yashovchi o'zbeklarning oilaviy munosabatlari borasida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

G.P. Snasarevning ilmiy ishlarining asosida Zardushtiylik dinining g'oyalari aks etgan bo'lsada, u marosimlarning totemizm, magik qarashlar va boshqada qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liq jihatlari ham saqlanib qolganligini ta'kidlangan<sup>21</sup>.

Mazkur davrda K.L. Zadyxina tomonidan Qoraqalpog'iston mintaqasida istiqomat qiladigan o'zbeklarning oilaviy marosimlari borasida keng miqyosda tadqiqot ishlari olib borilgan. K.L. Zadyxina asarlarida yigirmanchi asr boshlariga qadar Qo'ng'iro't o'zbeklari va Qipchoq tumani o'zbeklarining ajdodlari tuzilishini tasvirlaydi, urf-odatlarini, marosimlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan<sup>22</sup>.

Mazkur davrda Qoraqalpog'istonda istiqomat qiladigan qoraqalpoqlarning oilaviy marosimlari borasida ham bir qancha tadqiqot ishlari yo'lga qo'yildi. Masalan, X.Yesbergenov va T.Atamuratovlarning ushbu masalaga oid etnografik kitobi aynan biz yoritmoqchi bo'lgan mavzuga oid hisoblanadi<sup>23</sup>. Olimlar o'z ilmiy ishida nikoh to'yi, bola tug'ilishi, tarbiyasi va dafn hamda ta'ziya marosimlariga oid masalalarda fikr yuritgan. Shu kunga qadar bir qancha olimlar qator monografiyalarni nashr qilgan bo'lsa ham X.Yesbergenov va T.Atamuratovlarning ilmiy izlanishlari hanuzgacha o'zining ilmiy qadrini yo'qotmasdan kelmoqda.

Qoraqalpog'iston o'zbeklari ufr-odatlarini bo'yicha mustaqillik yillarida qator etnografik tadqiqotlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, Sh.Nurullaeva, S.Matkarimova, Z.Abidova, N.Matkarimova, U.Abdalov kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan<sup>24</sup>.

Biz o'rganayotgan masalaning ba'zi jihatlari, fragmentar ma'lumotlar I.M.Sadgjan<sup>25</sup>, R.Ballieva<sup>26</sup>, M.A.Karlibaev<sup>27</sup>, R.S.Kamalova<sup>28</sup>, Z.I.Qurbanova<sup>29</sup>,

---

<sup>19</sup> Сазонова М.В. Украшения узбеков Хорезма // Сборник Музея антропологии и этнографии. Т.26. – Л., 1970. – С. 113-142.

<sup>20</sup> Задыхина К.А. Узбеки дельты Аму-Дарьи // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т.1. – М., 1952. – С. 396.

<sup>21</sup> Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – 336 с; O'sha muallif. Под небом Хорезма. – М.: Мысль, 1973. – 160 с; O'sha muallif. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии. – М.: Наука, 1983. – 213 с; O'sha muallif. О некоторых причинах сохранения религиозно-бытовых пережитков у узбеков Хорезма. – М., 1957. – № 2. – С. 60-72.

<sup>22</sup> Задыхина К.Л. Пережитки возрастных классов у народов Средней Азии // ТИЭ. Научный сборник. 1951. Т. 14. – С. 166-167, 168-169, 170-171, 173.

<sup>23</sup> Есбергенов Х., Атамуратов Т. Традиции и их преобразование в городском быту каракалпаков. – Нукус, 1975.

<sup>24</sup> Нуруллаева Ш. Хоразм анъанавий кийимлари. – Тошкент: Yangi nashr, 2013. – 156 б.; Абидова З. Хорезм воҳаси зиёратгоҳлари (тарихий-этнологик тадқиқот): Тар. фан. д-ри (PhD). ... дис. – Тошкент, 2018. – 144 б.; Маткаримова С. Хоразм ўзбекларининг анъанавий овқатланиши. – Тошкент: Наврўз, 2021.

<sup>25</sup> Садгян И.М. Воспитание детей в городской семье каракалпаков: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1993. – 29 с.

<sup>26</sup> Баллиева Р. Этнокультурные особенности природопользования народов Приаралья (в конце XIX-начале XX века). – М.: Компания Спутник, 2003. – 78 с.

<sup>27</sup> Карлыбаев М.А. Роль зияратов в повседневной жизни каракалпаков // Мир ислама. Материалы международной исламоведческой научной конференции. – М., 2007; O'sha muallif. К истории ислама у каракалпаков: исторические, социальные, этнические и генеалогические контексты. – Нукус: Илим, 2021. – 274 с.

<sup>28</sup> Камалова Р.С. Традиционные верования в семейно-бытовой обрядности каракалпаков. Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Нукус, 1996. – 24 с.

N.A.Tleubergenova<sup>30</sup>, S.X.Yesbergenova<sup>31</sup>, M.M.Davletiyarov<sup>32</sup>, M.B.Utebaev<sup>33</sup>  
Q.Turekeev<sup>34</sup>larning ilmiy ishlarida ko‘rinadi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi oilaviy marosimlarning an‘anaviy diniy urf-odatlarini tadqiqotchi Q.Turekeev tadqiqotlarida joy olgan<sup>35</sup>. Mazkur tadqiqotchi magik, animistik, totem va islomiy an‘analarda oilaviy urf-odat va marosimlarning namayon bo‘lishini tadqiq qilgan.

Umuman olganda, sovet davrida oilaviy marosimlar turkumiga kiruvchi etnografik adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, yaratilgan deyarli barcha tadqiqot ishlarida kommunistik g‘oyaning ustunlik qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu tadqiqot ishlari garchi g‘oyaviy tazyiq ostida yaratilgan bo‘lsada, etnografik asarlar hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy izlanishlar o‘zining milliy an‘analariga xolisona yondoshganligi hamda tadqiqotlar butun respublika miqyosida emas, balki alohida viloyatlarga yoki etnoslarga ajratib o‘rganilishi bilan farqlanib turadi. Shuningdek, istiqloq yillarida olib borilgan tadqiqot ishlarida davlatimizda o‘zbek millati bilan birgalikda boshqada etnoslarning, har bir viloyatning an‘analari va marosimlarini tadqiq etishda xolisona o‘rganganligi bilan isbotlanadi.

Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarining oilaviy marosimlarini o‘rganishga oid tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, etnograflarning asarlarida bu muhim soha yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqotning **“Qoraqalpog‘istondagi o‘zbeklarda to‘y marosimlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarida sovchilik an‘analari bilan bog‘liq urf-odatlar, nikoh marosimlari va to‘y tantanalarining o‘ziga xos xususiyatlari, nikoh to‘yidan keyin bajariladigan marosimlar va an‘analar o‘rganilgan.

Mazkur bobning **“Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarida sovchilik an‘analari bilan bog‘liq urf-odatlar”** deb nomlangan birinchi paragrafda sovchilik udumlari, to‘y va to‘ydan keyin o‘tkaziladigan urf-odatlarini tadqiq qilingan.

---

<sup>29</sup> Курбанова З.И. Каракалпакский костюм: традиции и новации. – Нукус: Илим, 2021; O‘sha muallif. Традиционные верования и представления каракалпаков, связанные с одеждой и украшениями // Вестник антропологии. 2016, – №3. – С. 63-72.

<sup>30</sup> Тлеубергенова Н.А. Традиционное жилище каракалпаков XIX – начало XX вв.: Дис. ... канд. ист. наук. – Нукус, 1996. – 168 с.

<sup>31</sup> Есбергенова С. Почитание животных в культовой практике каракалпаков (конец XX – середина XX вв.): Дис. ... канд. ист. наук. – Нукус, 2001. – 155 с.

<sup>32</sup> Давлетияров М. Традиционные социальные институты каракалпаков. – Нукус: Илим, 2019. – 166 с.

<sup>33</sup> Утебаев М. Традиционное и новое в этикете каракалпаков: этнографический анализ. 2020. LAP LAMBERT Academic, – 176 с.

<sup>34</sup> Турекеев Қ. Қорақалпоқларнинг ҳозирги кундаги анъанавий этикодлари ва тасаввурлари: Тар. фан. д-ри. (PhD). ... дис. – Нукус, 2022. – 165 б; O‘sha muallif. Магические представления каракалпаков, связанные с детской обрядностью // Этнографическое обозрение. – М., 2020. – № 5. – С. 76-94.

<sup>35</sup> Турекеев Қ.Ж. Қорақалпоқларнинг ҳозирги кундаги анъанавий этикодлари ва тасаввурлари. – Нукус, 2022. 54 б.; O‘sha muallif. Магические представления каракалпаков, связанные с детской обрядностью // Этнографическое обозрение. – Москва, 2020. - №5. – С. 76-94.

Qoraqalpog‘istonda yashovchi aksariyat o‘zbeklarida sovchilik «*sao‘chyi*»<sup>36</sup> deb yuritilsa, Qo‘ng‘irot tumani o‘zbeklarida «*djavchi*» deb ataladi<sup>37</sup>.

Qoraqalpog‘iston mintaqalarida yashaydigan o‘zbeklarning sovchilik udumlarida ba‘zi farqli jihatlar mavjud. Masalan, janubiy tumanlarda birinchi marta sovchilikka 2-3 nafar erkak kishilar boradi. Shimoliy-g‘arbiy tumanlarda esa asosan ayol kishilar bu amalni bajaradi. To‘rtkul, Beruniy, Ellikqal’a tumanlarida sovchilikka borgan kishilar o‘zlari bilan novvot, oq qand, Taxiatosh, Xo‘jayli va Qo‘ng‘irot tumanlarida esa shirinliklar bilan birga nonlarni («*chörək*») olib borish urf hisoblanadi<sup>38</sup>.

Kuyovning elchilari qizni so‘rab borganida o‘zlari bilan birgalikda non olib borish odati mavjud. Qo‘ng‘irot tumanida sovchilikka qizni so‘rab borilganida 9 ta patir, 9 ta qatlama va 9 ta non hamda qizga ust-bosh kiyim-kechaklar olib kelinadi<sup>39</sup>. Amudaryo tumanida ayollar kelinning xonadoniga tashrif buyurganida 9 ta patir, 9 ta qatlama va 9 ta non keltirib, 9 ta nonning har biri ustiga yoshlar farzandli bo‘lsin degan magik niyatda kichkina kulcha qo‘shib olib kelish kabi odat mavjud ekan<sup>40</sup>.

Non sindirish udumi bajariladigan tadbirda qudalar to‘y sarf-xarajatlarini ham maslahatlashib olishadi. Qudalarning davra suhbatlari jarayonida kelinning «*qalin puli*» ham maslahatlashilgan. Respublikamizda istiqomat qiladigan o‘zbeklar qaysi tumanda yashashidan qat’iy nazar, «*qalin puli*» oilaning boshi – erkak kishilar tomonidan belgilab berilgan<sup>41</sup>.

Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarida sovchilik an‘analarining uzviy davomchisi bo‘lgan «*patiya to‘y*» ham o‘tkaziladi. Bu udum o‘tgan asr oxirlarida 40-50 kishi ishtirokida kichikroq to‘y sifatida nishonlangan. Hozirgi kunga kelib, bu to‘y juda ixcham tarzda, ya’ni 10 kishi ishtirokida o‘tkazilib kelinmoqda<sup>42</sup>. Bu udum Beruniy, Ellikqal’a va To‘rtkul tumanlarida «*o‘g‘ri patir*» deb ataladi<sup>43</sup>.

Sovchilik urf-odatlarini o‘rganar ekanmiz, Qo‘ng‘irot, Shumanay va Qonliko‘l tumanlarida «*jabyo‘*» deb nomlangan marosim mavjudligini aniqladik. Ya’ni, mazkur mintaqa o‘zbeklarida kelin va kuyov tomon qalin pulini kelishib olganidan keyin, bo‘lajak kuyov xonadoni urug‘-aymog‘iga maslahat oshini beradi.

<sup>36</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2022. – № 1. Беруний тумани, Х.Алимжон кўчаси № 30 уй. Ахборотчи – Ахметова Тугмажан Раҳмановна. 1962 йилда туғилган.

<sup>37</sup> Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Т.: ЎзССР Фан, 1977. – 101 б.

<sup>38</sup> Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: ЎзССР Фан, 1977. – 172 б.

<sup>39</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2020 йил, № 4. Қўнғирот тумани, Қангли ОФЙ. Ахборотчи – Хожаниязова Злиха. 1956 йилда туғилган.

<sup>40</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2022 йил, № 8. Амударё тумани. Қилчбой ОФЙ Ахборотчи – Эржанова Айман. 1956 йилда туғилган.

<sup>41</sup> Полевые записи автора, 2021 год, № 11. Тахиаташский район, 1 мкр-н, 4 дом, 23 квартира. Информатор – Палвашова Муборак. 1962 года рождения.

<sup>42</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2022 йил, № 6. Эликқабла тумани, Сарибий ОФЙ. Ахборотчи – Фахратдинова Гавҳар. 1965 йилда туғилган.

<sup>43</sup> Матқаримова Н. Хоразм воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XX аср ва мустақиллик даври). – Т.: Fan ziyosi, 2022. – Б. 33.

To‘ydan oldin tayyorlanadigan buyumlar ichida «*chimildiq*» ham muhim o‘rin egallagan bo‘lib, mazkur «nikoh pardasi» e‘zgu niyatlar bilan quroq bo‘laklaridan tikiladi.

Nikoh to‘yi kuniga qadar kattalar tomonidan bajariladigan amallar qatori yoshlar orasida ba‘zi bir kiyim-kechaklarini olishga ham tayyorgarlik ko‘riladi. Qoraqalpog‘istonning janubida istiqomat qiladigan o‘zbek kelinlari oq ko‘ylak bilan birga an‘anaviy «shoyi» ko‘ylaklarni ham kiyishadi. Oq ko‘ylakdan farqli ravishda mazkur ko‘ylak bozorlardan yoki do‘konlardan xarid qilinadi<sup>44</sup>.

Bugungi kunda da ayniqsa yoshlarning birga rasmga tushishi an‘anasi keng tarqalgan. Bu odat yoshlar orasida «Muhabbat hikoyasi» (Love story) deb nomlanib, kelin-kuyov birgalikda foto va video roliklarni olishda qatnashadi. Bunday foto va video sessiyani tayyorlashda Xiva, Samarqand va Toshkent kabi shaharlar hamda chet davlatlarga borishlari ham urfga aylanib ulgurgan<sup>45</sup>.

Demak, to‘y oldidan bajariladigan amallar an‘anaviy va zamonaviy odatlar bilan to‘yingan bo‘lib, ular orasida qiz tanlash, sovchilikka borish, non sindirish, fотиha kabi udumlar barqaror xarakterga ega ekanligini qayd etishimiz joiz. Shimoliy-g‘arbiy tumanlarda istiqomat qiluvchi o‘zbeklarning to‘ylarida qoraqalpoqlar bilan madaniy aloqalarning ta‘siri sezilsa, janubiy mintaqalarda esa Xorazm o‘zbeklari bilan umumiylik yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ushbu bobning “*Nikoh to‘yi kuni o‘tkaziladigan urf-odatlar*” deb nomlangan ikkinchi paragrafda to‘yi kuni o‘tkaziladigan urf-odatlar, tashkiliy ishlar, qo‘shni va qarindoshlarning ishtiroki, vazifalari tadqiq qilingan.

XX asr o‘rtalarida kuyov kelinning xonadoniga tashrifi chog‘ida yoshlarni «sha‘riy nikohlash» o‘qiganligi haqida ma‘lumotlar uchraydi. Lekin, bu odat asrning oxirlariga kelib yo‘qolib ketganligi bizga ma‘lum bo‘ldi.

Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarining qudalarga tayyorlanadigan taomnomasida ba‘zi farqlar mavjud. Aytaylik, mintaqaning janubida qudalarga palov (osh), qovurdoq pishirilsa, shimoliy-g‘arbiy tumanlarda ushbu taomlar bilan birga kurtik<sup>46</sup> ham tortiq qilinadi. Ya‘ni, ovqatlarni juft qilib mehmonlarning oldiga olib kelish urf hisoblanadi. Axborotchilarning bergan ma‘lumotlariga qaraganda to‘ylarda juft, motam marosimlarida esa toq ya‘ni bitta idishda taomlarni mehmonlar oldiga olib kelishini ta‘kidlaydilar. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, yoshlar juftlikda yashashsin degan ma‘noni anglastsa, matom marosimlarida xonadonda boshqa o‘lik bo‘lmasin degan magik niyatda ushbu amalga bo‘ysingan bo‘lsa kerak.

Mehmonlar ovqatlanib bo‘lganidan so‘ng, kelinni olib ketishga taraddulik ko‘radilar. Yangalari yordamida kelin o‘z dugonalari bilan birgalikda ota-onasidan va kattalarning duosini olib, kuyov bilan birgalikda chiqadi hamda ularga yor-yor qo‘shig‘i ko‘ylanib, yoshlar sayliga tayyorgarlik ko‘riladi.

<sup>44</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2022 йил, № 5. Эликкаъла тумани, Сарибий ОФЙ. Ахборотчи – Раззахова Зулфия. 1953 йилда туғилган.

<sup>45</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2019 йил, № 20. Нукус шаҳри. Ахборотчи – Юсупов Азиз. 1992 йилда туғилган.

<sup>46</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2021 йил, № 11. Тахиятош тумани, 1 к/т, 4 уй, 23 хонадон. Ахборотчи – Палвашова Муборак. 1962 йилда туғилган.

Xo‘jayli va Taxiatosh tumanlarida to‘y kuni yoshlar sayli vaqtida muqaddas qadamjolarga borib ziyorat qilish an‘anasi mavjud bo‘lgan<sup>47</sup>. Taxiatosh tumanida esa yoshlar shu tumanda joylashgan «Katmanchi bobo» qabristoniga borgan. To‘y vakillari tomonidan qur‘on oyatlari o‘qilganidan so‘ng, ziyoratgoh qudug‘iga paqir tashlab, yaxshi niyat bilan suvni kelin va kuyov birgalikda ichadilar<sup>48</sup>.

Kelinning kuyov xonadonga kirib kelishi bilan bog‘liq kichik marosimda bir necha udumlar joy olgan. Mashinadan kelin tushganida uning oyog‘i ostiga umri yumshoq bo‘lsin, oppoq pokiza va oqdek bo‘lishini niyat qilib gilam va uning ustiga oq mato to‘shaydilar. To‘rtkul tumanida kelin gilam va oq mato to‘shalgandan so‘ng xonadon eshigiga qadar payondozi to‘shaladi<sup>49</sup>. Kelin mashinadan tushirilgandan so‘ng janubiy tumanlarda «kelin salom», g‘arbiy tumanlarda «bet ochar» marosimi o‘tkaziladi. Bu marosim bir hil mazmunga ega bo‘lsa da, «kelin salom» da ayol kishi, «bet ochar» da esa erkak kishi o‘rtakashlik vazifasini bajaradi.

Aslida o‘zbek xalqida kelinning salom berishi marosimini asosan ayol kishilar boshchiligida el-yurtga tanishtirilgan. Mazkur mintaqada o‘zbeklar jips va ko‘p sonli bo‘lganligi sababli bu an‘ana yaxshi saqlanib qolingan. Qo‘rg‘irot, Xo‘jayli va Taxiatosh tumanlarida qozoq va qoraqalpoqlar bilan aralash yashaganligi bois «kelin salom» marosimi mintaqaga xos ravishda lokallashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Endi biz chimildiq va u bilan bog‘liq amallarimiz haqida to‘xtalsak. Xo‘jayli tumanining Eski shahar atrofida yashaydigan o‘zbeklarda yoshlar meva daraxti kabi mevali (farzandli) bo‘lsin degan e‘zgu niyatda chimildiqning ikkita tomoniga meva daraxtining shoxini ilib qo‘yishadi<sup>50</sup>. Kelin-kuyov chimildiqqa kiritilganidan keyin qadimgi an‘analardan biri bo‘lgan oynaga qaratish udumi o‘tkaziladi.

Nikoh o‘qitish marosimida ham go‘zal va be‘takror urf-odatlar jam bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Aslida nikoh o‘qitish islomiy urf-odat bo‘lib, har bir hududda o‘ziga hos lokal xususiyatlari bilan ajralib tursa ham musulmonchilik qoidalari asnosida shakillangan. Mintaqa o‘zbeklarida sha‘riy nikoh o‘qilishi vaqtida ikkala tomondan ikkita guvoh qatnashiladi va guvohlik beriladi<sup>51</sup>.

1960-1970 yillarda yoshlar va kelin-kuyovning ishtirokida o‘tkaziladigan to‘ylar tashkil etilgan bo‘lib, u «komsomol to‘y» deb nomlangan, ba‘zi qoraqalpoq etnograf olimlari tomonidan esa «komsomol to‘y» va «qizil to‘y» deb nomlangan.

XX asrning oxirlarida o‘tkaziladigan komsomol to‘ylaridan farqli ravishda bugungi kunga kelib davrakashlarning xizmatlariga talab ortganligining guvohi

<sup>47</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2020 йил, № 7. Хўжайли тумани. Ахборотчи – Худойберганов Маулан, 1948 йил туғилган.

<sup>48</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2021 йил, № 11. Тахиятош тумани, 1 к/т, 4 уй, 23 хонадон. Ахборотчи – Палвашова Муборак. 1962 йилда туғилган.

<sup>49</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2022 йил, № 6. Эликкаъла тумани, Сарибий ОФЙ. Ахборотчи – Фахратдинова Гавҳар. 1965 йилда туғилган.

<sup>50</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2023 йил, № 4. Хужайли тумани, Ғалаба кўчаси 45 уй. Ахборотчи – Бекимбаева Дилором. 1960 йилда туғилган.

<sup>51</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2021 йил, № 7. Қўнғирот тумани. Охунбобоев ОФЙ. Ахборотчи – Даулетбаев Омирбек. 1950 йилда туғилган.

bo‘lmoqdamiz. Chunki, o‘tgan asrning oxirlarida davrakashlar vazifasining asosiy qismi faqat to‘yni olib borish bo‘lib hisoblangan bo‘lsa, hozirgi vaqtga kelib esa ular kelgan mehmonlarning ko‘nglini ko‘tarish, shou kabi ko‘ngil ochar o‘yinlarni tashkil qilish kabi vazifalarni ham bajarib kelmoqda.

Ushbu bobning **“Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarining nikoh to‘yidan keyin bajariladigan marosimlar va an‘analari”** deb nomlangan uchinchi paragrafda Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarida to‘y kunidan keyin bajariladigan urf-odat va marosimlar o‘z an‘ana va qadriyatlarining xususiyatlari o‘rganiladi.

Nikoh to‘ylaridan so‘ng qattiq amal qilinishi kerak bo‘lgan an‘analaridan biri bu «chilla davri» bilan bog‘liq tabular va qoidalar hisoblanadi<sup>52</sup>. Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarida XX asrning o‘rtalariga qadar nikoh to‘ylaridan keyin chilla davri va u bilan bog‘liq odatlarning konservativ shaklida bo‘lganligi, ammo asrning oxirlariga kelib esa transformatsiyaga uchraganligining guvohi bo‘lamiz. Masalan, Respublikaning janubiy mintaqalarida 40 kun kelin-kuyov o‘zlarining xonasidan tashqariga chiqmaslikka harakat qilishgan. Ayniqsa kelinga tabu va cheklovlar juda ko‘p bo‘lgan.

Kelinda bosh qorong‘ulik alomatlari paydo bo‘lganda u ancha vaqt sir tutiladi hamda homila juda ehtiyot qilinadi. «Ikkiqat» deb nomlangan bu davrning dastlabki vaqtida homilaning rivojlanishi uchun barcha say-harakatlar qilinadi. Mintaqa o‘zbeklari orasida olib borgan dala tadqiqotlarimiz vaqtida o‘zbek ayollari homilaning dastlabki davrida agarda go‘shqli taomlarni ko‘proq iste‘mol qilsa o‘g‘il, shirinliklarni ko‘proq tanovul qilsa qiz tug‘iladi deb ishonishadi<sup>53</sup>.

Keyingi bosqich, an‘anaviy e‘tiqodiy qarashlariga qaraganda ona va bolani uyga kiritishdan oldin poklanib kirishi zarur hisoblanar ekan. Poklanishning yagona yo‘li bu olovdan xatlab o‘tishdir. Amudaryo tumani Qitoy qishlog‘ida chaqaloqni boshiga toshni uch marotaba tekkizib, so‘ngra xonadonga kiritadi. Axborotchimizning xabar berishicha agarda ushbu amal bajarilsa, bolaning boshi toshdek qattiq bo‘lar ekan<sup>54</sup>.

Bolani suvga cho‘miltirish bilan bog‘liq marosim odatda yetti kundan so‘ng o‘tkazilib uni o‘zbek xalqi «yetti chilla» deb ataydi<sup>55</sup>. Kichik chillada ona va bolani alohida xonada suv bilan poklash marosimi o‘tkaziladi.

Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarida chilladan chiqarish marosimida tanga (xon tanga), shuningdek, qimmatbaho buyumlar yoki oltin uzuk suvga solinsa bola kelajakda serdavlat bo‘ladi deb ishonadi<sup>56</sup>.

Bolani chilladan chiqarish vaqtida xonadon vakillari chaqaloqning «qorin sochi» ni olib meva daraxtining tagiga ko‘madilar. Xo‘jayli va Taxiatosh

<sup>52</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2021 йил, № 4. Нукус шаҳри, Бағли ел кўчаси 64 уй. Ахборотчи – Тангирбергенова Абадан. 1931 йилда туғилган.

<sup>53</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2021 йил, № 6. Нукус шаҳри, Бағли ел кўчаси 27 уй. Ахборотчи – Қалбаева Раима. 1952 йилда туғилган.

<sup>54</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2023 йил, № 5. Амударё тумани, Қитой ОФЙ. Ахборотчи – Жумабоева Муҳаббат. 1967 йилда туғилган.

<sup>55</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2023 йил, № 26. Амударё тумани, Пахтакор кўчаси 14 уй. Ахборотчи – Умарова Мунаввар. 1950 йилда туғилган.

<sup>56</sup> Муаллифнинг дала ёзувлари, 2023 йил, № 26. Амударё тумани, Пахтакор кўчаси 14 уй. Ахборотчи – Умарова Мунаввар. 1950 йилда туғилган.

tumanlarida esa uning tumor vazifasini bajarishiga ishonib, go‘dak yotgan beshikka ilib qo‘yadilar<sup>57</sup>. Etnografik adabiyotlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, kokil «aydar» sochlarini ketma-ket farzandi nobud bo‘lgan xonadon vakillari tomonidan qo‘yilganligi qayd etilgan<sup>58</sup>.

Bolaning ilk qadami tashlashi xonadonda katta xursandchilik bilan qarshi olinadi. Chaqaloq qadamlarni tashlab, lekin ahyon-ahyonda qoqilib yiqilsa «tushov kesish» marosimi o‘tkaziladi.

Bolalik davrida o‘tkaziladigan marosimlar ichida eng ma‘suliyatli va bajarilishi shart bo‘lgan udum bu «sunnat» qilish hisoblanadi. Islom dinining sunnat amallaridan biri bo‘lgan mazkur udum islom diniga sig‘inadigan barcha etnos va e‘latlarda o‘tkazilib kelinmoqda. Sha‘riy qoidalarimizda chaqaloq tug‘ilganidan keyin 7, 14 va 21 kunlarning birida sunnat qilinishi zikr qilingan<sup>59</sup>.

Qoraqalpog‘iston mintaqasida istiqomat qiladigan o‘zbeklarning oilaviy marosimlari va urf-odatlarini o‘ziga hos an‘analariga boyligi va jizibadorligi bilan boshqa etnoslardan farqlanib turadi. Buni farzandli bo‘lish yo‘lida qilinadigan an‘anaviy amallar va irimlar, tabu bilan bog‘liq qarashlarda ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqotning **“Qoraqalpoqiston o‘zbeklarida dafn marosimlari”** deb nomlangan uchinchi bobida Qoraqalpog‘iston o‘zbeklarida dafn marosimlari bilan bog‘liq urf-odatlar, o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan.

Mazkur bobning **“Qoraqalpoqiston o‘zbeklarida o‘lim va u bilan bog‘liq xalqona tasavvurlar”** deb nomlangan birinchi paragrafda o‘lim va u bilan bog‘liq xalqona tasavvurlar tadqiq qilingan.

Inson uzoq umr ko‘rsa o‘zlarining dafn marosimlariga tayyorgarlik ko‘rishi bilan bog‘liq odatlar mavjud. Ulardan eng ko‘p tarqalgani ko‘pchilik insonlar o‘zlariga mozarlarini oldindan tayyorlab qo‘yish bilan bog‘liq masaladir.

Mintaqamizda istiqomat qiladigan o‘zbeklarda va boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi inson o‘limidan oldin qilinadigan amallar mavjud. Ana shunday zarur bo‘lgan amallardan biri vasiyatdir. Qoraqalpog‘istonda yashaydigan o‘zbeklarda inson jon topshirar oldidan, uning yaqinlari va oila a‘zolari bilan vidolashadilar. Bu odat *«irzalashio‘»* deb nomlanadi.

